



## TILSHUNOSLIK NAZARIYASINI QIYOSIY O'RGANISH

**Retxanova Aqbo'ta Erkin qizi**

*Turkiy tillar fakulteti, Qozoq tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda har bir tilda bir qancha dialekt va shevalar mavjud bo'lib, ular o'zlariga xos xarakterli xususiyatlarini saqlab kelmoqda. Bu shevalarning saqlanib kelishi feodal tarqoqligi davri bilan bog'langan bo'lsa ham, ularning paydo bo'lishi davri va saqlanib kelishining asli sababini juda qadim zamondan, ibtidoiy jamoa tuzumi va undan ham oldin boshlangan deb izohlash kerak.

**Kalit so'zlar:** sheva, til, korpus, qiyosiy o'rganish.

Nutqdagi turli faktorlar natijasida tovushlar bir-biriga ta'sir qiladi. Bunday faktorlardan bin tovushning o'rni, uning boshqa tovushga qo'shni holatda bo'lishi, tovushlarning birikuvi va urg'uning tabiatiga bog'liq. Tovushlarning pozitsion va kombinator o'zgarishlari farqlanadi.

Ma'lum holatda ro'y beruvchi tovushlarning o'zgarishi pozitsion o'zgarishlar deb ataladi. Pozitsion o'zgarishlar uch turga ega: 1) urg'uga nisbatan urg'uli va urg'usiz unlilar farqlanadi; 2) bo'g'in va uning tabiatiga ko'ra ochiq va yopiq hamda berkitilgan va berkitilmagan bo'g'inlar farqlanadi; 3) so'zdagi o'rniga ko'ra so'z boshi, o'rtasi va oxiridagi tovushlar va ularning birikmalari farqlanadi.

Unli tovushlarning urg'usiz bo'g'inlarda kuchsizlanishi yoki o'zgarishi reduksiya deyiladi. Odatda sifat va miqdor reduksiyasi farqlanadi. Urg'usiz yopiq bo'g'inlarda unlilar cho'ziqligining qisqarishi va kuchli artikulyatsiya qilinishining yo'qolishi miqdor reduksiya deb ataladi. Masalan, sanash so'zining boshidagi urg'usiz /a/, oxiridagi /a/ ga qaraganda ancha kuchsiz va qisqa talaffuz etiladi. Rus tilidagi *gorod*, *goroda* so'zlarida urg'usiz unlilar kuchsiz va qisqaroq talaffuz etiladi.

Tovushlarning urg'uga nisbatan o'rniga ko'ra ikki xil pozitsiya farqlanadi: urg'uli bo'g'indagi holati - kuchli pozitsiya deb, urg'usiz bo'g'indagi holati - kuchsiz pozitsiya deb ataladi. Kuchli pozitsiyada unlilar o'z artikulyatsion-akustik xususiyatlarini saqlab qoladi. Kuchsiz pozitsiyada unlilar miqdor va sifat belgilarini yo'qotadi, ya'ni reduksiyaga uchraydi.

Yuqorida ko'rsatilgan miqdor reduksiyasidan tashqari sifat reduksiyasi ham bor. Sifat reduksiyasida bir yo'la tovushning artikulyatsiyasi kuchsizlashadi va tovushning sifati o'zgaradi. Masalan, rus tilidagi *voda*, *vodi*, *vodyanoy*, *vodavoz*



so'zlaridagi urg'usiz unlilar (o, a) tovushlari doirasida o'zgaradi. O'zbek tili-da bunday xususiyat etarli darajada ko'zga tashlanmaydi. Reduktsiyaga uchragan tovushlar urg'uli tovushlarga qaraganda aniq bo'lmagan kuchsiz va qisqaroq talaffuzga ega.

Reduktsiya`ning darajasi faqat tovushning holatiga emas, balki talaffuz stiliga ham bog'liq. Odatda to'liq talaffuz stilida reduksiya minimal darajada bo'lib, og'zaki nutq stilida esa, u maksimal darajada ro'y beradi. Undan tashqari reduksiyaning darajasi unlilarning tilning ko'tarilishiga ko'ra belgilariga (yuqori, o'rta, quyi) ham bog'liq.

Undosh tovushlar ham pozitsion o'zgarishlarga uchrashi mumkin. O'zbek tilida so'z oxiridagi jarangli undoshlar jarang-sizlashishi bunga misol bo'la oladi (*kitob /kitop/, qand /qant* kabi). Ba`zan ko'p bo'g'inli so'zlarda so'z oxiridagi jarangsiz undoshlar jarangli bo'lib talaffuz etiladi (*bilak-bilagi, kurak-kuragi, tilak-tilagi* kabi).

Turli holatlarda tovushlarning talaffuzi har xil o'zgarishlarga uchraydi. N.S. Trubetskoy ko'rsatishicha "...amaliy jihatdan aynan bir tovushni bir pozitsiyada ham bir necha marta aniq va bir turda talaffuz etish mumkin emas" [Trubetskoy N.S. Osnovi fonologii. M., 1960, s. 48-49.] Nutqda tovushlarning turli pozitsion o'zgarishlarini qancha chuqur o'rganilsa, shunchalik ko'p tovushlarning turlari aniqlanishi mumkin.

Nutqda tovushlarning qo'shni tovushlar ta'sirida miqdor va sifat belgilarining o'zgarishi kombinator o'zgarishlar deyiladi.

Nutqda tovushlarning kombinator o'zgarishlariga akkomodatsiya, assimilatsiya, dissimilatsiya, diereza, epenteza, gapnologiya, proteza, metateza kabi fonetik hodisalar kiradi. Ba`zan bu hodisalarni o'rganuvchi bo'lim kombinator fonetika deb ham yuritiladi. Odatda tovushlarning birikuvi nutq organ-larining turli harakatlariga bog'liq bo'adi.

Tovushlar qo'shni holatda kelganda, oldingi tovushlarning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasi bilan bog'lanishi natijasida ularning artikulyatsiya fazalari to'la amalga oshirilmasligi mumkin. Turli artikulyatsion-akustik xususiyatlar tovushlar birikmasida bir-biriga ta'sir qilishi natijasida artikulyatsiya qisqarishi, tovush ba`zan tushib qolishi va boshqa o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Bunday o'zgarishlar ba`zan nutqda talaffuzni iqtisod qilish hisobiga bo'ladi, chunki "... odam o'zining nutqi eshituvchiga qanchalik tushunarli bo'lsa, o'shancha talab etilgan nutq kuchini (ya'ni talaffuzini) sarf qiladi" [Martine A. Osnovi obshey lingvistiki. Novoe v lingvistike. Vg'p. III.M, 1963, str. 536].



Nutqda talaffuzni iqtisod qilish artikulyatsiyasi qiyin bo'lgan bir necha undoshlar birikmasini qisqartirib oson talaffuz etishda kuzatilishi mumkin. Nutqda ro'y beravchi bunday iqtisod qilish tendensiyasi kelgusida til doirasiga ham ko'chadi.

Masalan, (str) undoshlar birikmasining talaffuzi qiyinchilik tug'diradi va shu tufayli uni osonlashtirish turli tillarda bo'lgan undoshlar birikmasini umumiy qisqartirish tendensiyasiga bo'ysunadi. Qiyoslang: rus og'zaki nutqida "*stram*" so'zi "*sram*" yoki nemis tilidagi *strom* so'zi *srom* - "*yo'nalish*" kabi talaffuz etiladi [Serebrennikov B.A. Veroyatnostng'e obosnovaniya v komparativistike. M., Nauka, 1974, s. 62].

Akkomodatsiya (lotincha *accomodatio* - moslashuv) keng tarqalgan fonetik hodisalardan biri bo'lib, talaffuz iqtisodi bilan uzviy bog'liqdir. Akkomodatsiya uch turli bo'ladi. Keyingi tovushning ekskursiyasi o'zidan oldin kelgan tovushning rekursiyasiga moslashsa, progressiv akkomodatsiya deyiladi. Aksincha, agar oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashsa, regressiv assimilyatsiya deb ataladi. Qo'shni kelgan tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida ularning artikulyatsiyasi moslashuvi o'zaro akkomodatsiya deyiladi. Akkomodatsiya unililarning undoshlarga va undoshlarning unililarga moslashuvida ro'y berishi mumkin. O'zbek tilida chuqur til orqa (uvulyar) undoshlardan (*x, g', q*) keyin til oldi unililari (*i, e, a*) til orqa unililari bo'lib talaffuz etiladi, ya'ni ularning talaffuzi moslashadi. Aksincha, til orqa unililari (*u, o*) til oldi undoshlaridan keyin til oldi unililari bo'lib artikulyatsiya qilinadi. O'zbek tilidagi bu xususiyat progressiv akkomodatsiyaga misol bo'la oladi. Unli tovushlar burun undoshlaridan oldin nazalizatsiya qilinishi regressiv akkomodatsiyaga misoldir. *Non, nom, ming* so'zlarida bir yo'la progressiv va regressiv akkomodatsiya kuzatiladi, chunki ikki burun undoshi orasidagi unli *nazalizatsiya* qilinadi. Fonetik va tarixiy almashuvlari o'rtasidagi o'xshashlik ularning har ikkisi ham morfologik funksiyani bajarishida ko'rinadi. Biroq fonetik tovush almashuvi tilning hozirgi talaffuz normasi bilan bog'liq bo'lsa, tarixiy tovush almashuvi bunday xususiyatga ega emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurakhimova, D. K. (2014). PREREQUISITES FOR THE TRANSITION OF TRADITIONAL BANKS TO DIGITAL BANKING. The Way of Science, 23.



2. Anvarovich, N. E., & Malik ogli, S. S. (2023). Influence of Financial Inclusion Enclosed by Digital Banking Products on UzbekistanS Economy. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(4), 32-37.
3. Jindal, L., Sharma, A., Prasad, K. D. V., Irshad, A., Rivera, R., & Karimovna, A. D. (2023). A machine learning method for predicting disease-associated microRNA connections using network internal topology data. *Healthcare Analytics*, 100215.
4. Kosumi, A., & Poposka, K. (2022). TECHNOLOGICAL CHANGE AND FINANCIAL INNOVATION IN BANKING. *Economic Development Економски развој*, 57.
5. Amanbaev, M. (2022). INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES BASED ON NATIONAL VALUES IN AUDIENCE TRAINING. *Science and Innovation*, 1(6), 831-835.
6. Аманбаев, М. (2022). ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(6), 4-7.
7. Amanbaev, M. (2022). АУДИТОРИЯ МАШҒУЛОТЛАРИДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *Science and innovation*, 1(В6), 831-835.
8. Usenova, G. A. (2023). The Image of Mother in Karakalpak Literary Discourse. *ЖЕТТ*, 14(3), 237-244.
9. Усенова, Г. А. (2020). ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «АНА» В КАРАКАЛПАКСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(2).
10. Uraeva, D., & Kabulova, Z. (2019). INFLUENCE OF UZBEK LITERATURE ON ARTISTIC DEVELOPMENT OF KARAKALPAK MODERN POETRY. In *КУЛЬТУРОЛОГИЯ, ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ И ФИЛОЛОГИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 94-98).
11. Kabulova, Z. A. (2022). Development of spiritual and formal-methodological studies in modern Uzbek and Karakalpak poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 56-59.
12. Adilbaevna, K. Z. (2019). SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS OF MODERN POETRY. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(11), 37-42.



13. Кабулова, З. А. (2020). ЕДИНСТВО СОДЕРЖАНИЯ И ФОРМЫ В УЗБЕКСКОЙ И КАРАКАЛПАКСКОЙ ПОЭЗИИ. Евразийский Союз Ученых, (6-7 (75)), 61-63.
14. Adilbaevna, K. Z. (2019). SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS OF MODERN POETRY. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(11), 37-42.
15. Tursinbaevna, G. R., & Uli, U. Q. K. (2020). Territorial Location Of Medical Services To The Population In The Republic Of Karakalpakstan. The American Journal of Applied sciences, 2(11), 28-33.
16. Sultanova, A., Suvonov, I., & Xushanov, A. (2021). ALISHER NAVOIYNING «HAYRATUL-ABROR» DOSTONIDA ODOB-AXLOQ MASALALARINING TARANNUM ETILISHI. Студенческий вестник, (6-4), 78-79.
17. Kudiyarovna, K. A. (2022). THE EFFECTIVENESS OF VOLUNTEERING IN THE FORMATION OF KNOWLEDGE ABOUT THE RIGHTS OF THE CHILD AMONG SCHOOLCHILDREN. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(5).